

Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda- GSBPM)) va “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (Generic Statistical Information Model (keyingi o'rinlarda – GSIM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy nizom Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, statistika organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksini hisoblashda foydalaniladi.

Ushbu uslubiy nizomni shakllantirishda “Ishlab chiqaruvchilar narxlar indeksi: amaliyot va nazariya” (YeIQ, BMT, XVJ, XMT, IXRT, Yevrostat, Jahon banki, 2004- yil) va milliy hisoblar tizimida narxlar hamda hajm ko'rsatkichlari qo'llanmasining (Yevrostat 2001- yil) xizmatlar ishlab chiqaruvchilar tariflari indeksini shakllantirish qismidagi tavsiyalaridan foydalanilgan.

Ushbu uslubiy nizom tanlanma statistika kuzatuvlarini tashkil etish va olib borishda statistika organlari tomonidan ishonchli statistika ma'lumotlarini olish va ular asosida tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indekslarini hisoblash imkonini beruvchi bosqichlarning ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

Tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksi tizimini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni hamda har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi qonuniy asos bo'lib hisoblanadi.

1-bob.Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va joriy qilish GSIMga muvofiq, “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”da nazarda tutilgan bosqichlar asosida amalga oshirilgan.

Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalanilgan:

tayanch yil – salmoq vaznlar tizimini shakllantirish va tariflarning tanlanma statistik kuzatuvlarini tashkil etishda tayanch tashkilotlar hamda vakil-xizmatlar turlarini tanlab olishda tashish va aloqaning bozor xizmatlari hajmi ko'rsatilgan yil;

vakil-xizmat – tashish va aloqa xizmatlari tariflari statistika kuzatuvini amalga oshirish uchun tanlangan aniq turdagi xizmat.

xizmatning salmoq vazni (xizmatlar guruhi) – tanlangan vakil-xizmat (xizmat guruhi) bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining tayanch yilda tashish va aloqa bo'yicha ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmidagi ulushi. Bu har bir elementning umumiy majmuadagi muhimlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich;

tariflarning individual indeksi – aniq turdagi vakil-xizmatlar tariflari o'zgarishi darajasini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich;

tariflarning jamlangan (umumiy) indeksi – alohida kichik guruhlar, guruhlar yoki o'rganilayotgan jarayonlar bo'yicha umumiy hisobda tariflar o'zgarishi darajasini tavsiflovchi va individual tarif indeksleri asosida shakllanuvchi nisbiy ko'rsatkich;

tayanch tashkilot – tariflarni ro'yxatga olish uchun tanlangan kuzatuv obyekti;

yirik tayanch tashkilot – kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari yirik tijorat tashkilotlari;

tariflar shakllantirishning xususiyatlari (tasniflari) – vakil-xizmatlarni aniqlash imkonini beruvchi va tariflarning qiymatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan xususiyatlar. Tashish xizmatlari tariflarining shakllanishi xususiyatlari quyidagilar: yuk sinfi yoki nomi, tashish masofasi, bir martalik yukni jo'natish hajmi, transport vositasi turi, markasi, yuk qabul qiluvchining turi, yetkazib berish tezligi, belgilangan joy, transport vositasining yuk ko'tarish qobiliyatidan foydalanish darajasi, xizmat ko'rsatish darajasi va shu kabilar. Aloqa xizmatlari bo'yicha – tarif rejasi, belgilangan trafik hajmi, oqim tezligi, to'plamga kiritilgan kanallar va h.k.

Ushbu Uslubiy nizomda qo'llanilgan atamalardan statistika organlari tomonidan statistik maqsadlarda foydalaniladi.

2-bob. Tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksini hisoblash instrumentariysi

2. Tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksini aniqlash uchun ma'lumotlar bazasi bo'lib tanlangan korxonalar doirasida 12 narx "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchilar narxlariga to'g'risida savolnoma shakli, shuningdek, 12 narx (iste'mol) blankasi "Tovar(xizmat)lar iste'mol

narx(tarif)larini ro'yxatga olish so'rovnomasi" kuzatuv shakli asosida yo'lovchi tashish xizmatlari va aholi uchun aloqa xizmatlari tariflarining ro'yxatga olingan iste'mol narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

3. Mazkur shakllar GSBPMga muvofiq Statistika dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi hamda Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanmada belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

3-bob. Tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksini shakllantirishning asosiy bosqichlari

4. GSBPMga muvofiq, tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini bevosita shakllantirish to'plash (GSBPMning IV bosqichi), qayta ishlash (GSBPMning V bosqichi), tahlil qilishni (GSBPMning VI bosqichi) nazarda tutuvchi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Shakllantirilgan ma'lumotlarni keyinchalik e'lon qilish GSBPMning VII bosqichiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Tariflar indeksini shakllantirish quyidagi bosqichlar va jarayonlardan tashkil topgan:

a) bosh to'plam asosida narx kuzatuvlari o'tkaziladigan tayanch ob'ektlar va vakil tovar (xizmat)lar tanlanmasini shakllantirish (GSBPM modelining 4.1-jarayoni);

b) narxlarni ro'yxatga olishning asosiy tamoyillariga amal qilinishini ta'minlagan holda narx ma'lumotlarini to'plashni tashkil etish, o'tkazish va yakunlash (GSBPM modelining 4.2 va 4.4-jarayonlari);

v) integratsiya, tasniflash va kodlashtirish, tekshirish, ma'lumotlarni tahrirlash va shartli hisob kitoblarni o'tkazish, vaznlar tizimini shakllantirish, ma'lumotlarni umumlashtirishni nazarda tutadigan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni (GSBPM modelining 5.1-5.8-jarayonlari);

g) dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, tekshirish, statistik ma'lumotlarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash, birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiyalashni oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish va narx indeksini shakllantirishni yakunlash (GSBPM modelining 6.1-6.5-jarayonlari).

4-bob. Vakill-xizmatlar tanlanmasini shakllantirish

6. Tariflarni ro'yxatga olish uchun vakill-xizmatlar tanlab olish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda tarif indeksini shakllantirishda yagona yondashish nuqtai nazaridan iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasnifi (IFUT, 2-tahrir)ning **N. Tashish va saqlash** va **J. Axborot va aloqa** bo'limlari faoliyatiga taalluqli,

tashish va aloqa xizmatlari umumiy hajmda katta salmoq vaznga ega alohida turdagi xizmatlar ro'yxati shakllantiriladi. Buning uchun tayanch yil ma'lumotlarida xizmatlar sohasi statistikasining ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqichda muntazam kuzatuvlar uchun keltirilgan ro'yxat asosida yuklar va aloqa ko'rinishidagi aniq tavsifga va tarif shakllantirish xususiyatiga ega bo'lgan tariflarni ma'lum bir shakl asosida vakil-xizmatlar ro'yxati shakllantiriladi.

Aloqa xizmatlari tariflarini ro'yxatga olishda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan uslublarga muvofiq, shartli belgilangan tariflarning o'zgarishlarini hisobga olishga yo'l qo'yiladi.

7. Vakil-xizmatlar tanlovining asosiy mezonlari:

tanlab olingan vakil-xizmatlar respublika bozorlaridagi transport va aloqa xizmatlarining umumiy hajmda sezilarli darajadagi salmoq vaznga ega bo'lishi lozim;

tanlab olingan vakil-xizmatlar kalendar yili davomida muntazam ravishda mavjud bo'lishi kerak;

har bir tur bo'yicha alohida tanlab olingan xizmatlardan tariflarni shakllantirish tavsifiga ega bo'lganlarini ajratib olish mumkin;

tanlab olingan turlar bo'yicha vakil-xizmat tariflari ma'lumotlari taqqoslanadigan davrlarga mos bo'lishi kerak.

5-bob. Tayanch tashkilotlar tanlanmasini shakllantirish

8. Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qarori asosida faoliyat olib boruvchi Yagona davlat registri ma'lumotlari bo'yicha tashish va aloqa xizmatlari tariflari kuzatuvi uchun tayanch tashkilotlar tanlab olinadi.

9. Tayanch tashkilotlarning ro'yxati maqsadli tanlov orqali shakllantiriladi.

10. Avtomobil transporti tashkilotlaridan tashqari tayanch tashkilotlar tanlovi Statistika agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tayanch tashkilotlar tanlanmasini shakllantirish Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

11. Avtomobil transporti korxonalari va saqlash sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar Statistika agentligi bilan kelishilgan holda hududiy statistika organlari tomonidan tanlanadi. Korxonalar tanlovini amalga oshirishda muntazam ravishda faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlarga alohida urg'u berish kerak. Bu esa o'z navbatida tarif ma'lumotlarni yig'ishda o'zaro taqqoslash imkonini yaratadi.

12. Tanlanmaning maqbul hajmiga statistika kuzatuv uchun tanlab olingan asosiy xizmat guruhlarini imkon darajasida to'liqroq qamrab olish imkonini mavjud bo'lgan tayanch korxonalarni tanlab olingandagina erishiladi.

6-bob. Tariflarni ro'yxatga olish tartibini belgilash

13. Korxonalarda narxlarni ro'yxatga olishni har oyning 15-sanasi dan 20-sanasi gacha bo'lgan davrda o'tkazish tavsiya etiladi. Ushbu tavsiya yirik tayanch tashkilotlar bilan birga kichik tadbirkorlik subyektlariga mansub tayanch tashkilotlarga taalluqlidir. Bunda, tovarning har bir turini ro'yxatga olish kuni, joriy yilning barcha oylari davomida doimiy bo'lib qolishi hamda shu tovar turlari narxlarini avvalgi va kelgusi ro'yxatga olish oralig'idagi muddat bir kalendar oyiga teng bo'lishi lozim.

14. Tariflarni ro'yxatga olish statistika kuzatuv shaklining yakuniy qismida keltirilgan ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

15. Agarda tarif xizmatlari chet el valyutasida o'rnatilgan bo'lsa, u holda ro'yxatga olish sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha qayta hisoblanadi (oyning 15 sanasi yoki unga yaqinroq sana).

16. Yil boshida tanlanmaga yangidan qo'shilgan tovarlar (xizmatlar) uchun o'tgan yilning dekabr oyidagi tayanch narx qayd etilishi lozim.

17. Agar tayanch korxonada tarifni shakllantiruvchi aniq xususiyatlarga ega yagona vakil-xizmat turini ajratib olishning imkonini mavjud bo'lmasa, unday hollarda bir nechta turdagi xizmatlar tariflari ro'yxatga olinadi.

Mazkur xizmatlarning ro'yxati va jami soni tayanch korxona mutaxassislari bilan birgalikda aniqlanadi va yil davomida o'zgarishsiz qoladi. Agar, oy davomida tayanch korxonada ushbu ro'yxatdagi biror bir xizmat turi bo'yicha tarifni qayd etish imkonsiz bo'lib qolsa, u holda, qayd etilmagan tarif ushbu Uslubiy nizomda keltirilgan usullarning biridan foydalangan holda shartli hisob-kitob qilinishi lozim.

Bitta vakil-xizmat doirasida bir nechta xizmatlar turlarini ro'yxatga olish qaroriga kelingan hollarda o'rtacha tarif hisob-kitob qilinadi. Buning uchun o'rtachageometrik ko'rsatkichni aniqlash formulasidan foydalaniladi:

$$\bar{P}_t = \sqrt[n]{\prod_{i=1}^n P_{i(t)}}$$

bu yerda,

$\bar{P}_t$ xizmat bo'yicha joriy davr uchun (t) o'rtacha tarif

$P_{i(t)}$ har bir tayanch korxona bo'yicha mazkur xizmat turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan xizmat bo'yicha ishlab chiqaruvchilarning joriy

oy (t) uchun tarifi (i);
 n mazkur xizmat turi yuzasidan kuzatuvga kiritilgan tayanch tashkilotlar soni.

Shu tarzda aniqlangan o'rtacha tariflardan individual tariflar indeksini aniqlashda foydalaniladi.

18. Tarif indekslarini barpo etishda ma'lumotlarning taqqoslanishi va tarif qatorlarining uzluksiz davriyligini ta'minlash kerak. Indeksni hisoblashda har qanday mavjud bo'lmagan tariflar hisobga olinmaydi.

19. Agar tayanch tashkilotlarda kuzatilayotgan vakil-xizmatlar (yoki ularning turlari) vaqtinchalik to'xtatilgan vaziyatlarda tariflarni shartli ravishda hisoblash amalga oshiriladi. Tariflarni shartli ravishda hisoblash amaldagi tariflarning haqiqiy ma'lumotlari olinguniga qadar amalga oshiriladi.

20. Shartli ravishda hisoblashning ikki xil usuli mavjud: oldingi davrdagi tariflardan foydalanish va shartli tariflarni hisoblash.

21. Avvalgi davrdagi tariflardan foydalanish usuli faqatgina bir-ikki oy davomida tarif dinamikasida nisbatan barqarorlik kuzatilgan vaqtlarda tashish va aloqa xizmatlari tariflari tanlanma statistik kuzatuv tanlanmasidagi tayanch tashkilotlar mutaxassislari bilan o'zaro kelishilgan holdagina qo'llanilishi mumkin.

22. Shartli tariflarni hisoblash usuli tariflarning dinamikasi barqaror bo'lmaganda va tayanch tashkilot tomonidan vakil-xizmat ko'rsatish uzoq muddatga to'xtatilganda qo'llaniladi. Davriy qatorlardagi uzluksizlik shartli tariflarni hisoblash va tariflarning nisbiy o'zgarishlaridan foydalanish yo'li orqali ta'minlanadi:

boshqa tayanch tashkilot tomonidan taqdim etilgan aynan shunday vakil-xizmat;

kuzatuv uchun tanlab olingan xizmat ko'rsatuvchi barcha tayanch tashkilotlarning vakil-xizmati (mavjud bo'lmaganiga aynan o'xshash);

umumiy hisobda barcha turdagi tashish va aloqa xizmatlari bo'yicha.

Shartli tariflarni hisoblash bo'yicha misollar ilovada keltirilgan.

23. Amaldagi haqiqiy tariflar paydo bo'lgan oyda shartli tariflarni qo'llash natijasida ularning asossiz ravishda oshishi yoki kamayishini oldini olish maqsadida amaldagi tarif ma'lumotlari asosida haqiqiy o'sish sur'atiga nisbatan avvalgi oydagi shartli tariflarni to'g'rilash amalga oshirilishi mumkin.

24. Agar, xizmat yoki ulardan bir turi ko'rsatilishining to'xtatilishi doimiy xususiyatga ega bo'lsa, u holda tayanch tashkilot mutaxassislari bilan kelishilgan holda vakil-xizmat yoki ularning ma'lum bir turlarini almashtirish bo'yicha qaror qabul qilinishi mumkin. Masalan, bu holat turli tashish yo'nalishlari bo'yicha havo transportida yuk tashishning bir nechta xizmatlari tariflarini ro'yxatga olish bilan bog'liq holatlarga taalluqlidir.

Ushbu holatda "o'rin almashtirish" usulidan foydalanish mumkin bo'lib, bunda yangi joriy qilingan xizmatlar yoki uning alohida turining o'tgan va joriy

oydagi tariflari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish lozim bo'ladi. Agar, vakil-xizmat turini almashtirish amalga oshirilayotgan bo'lsa, u holda tariflarning individual indeksi yangi joriy qilingan xizmat tarifi asosida ushbu tarifning joriy oydagi ko'rsatkichini yangi joriy etilgan xizmat turining o'tgan oydagi tarifiga nisbati orqali aniqlanadi.

Agar, bir yoki bir nechta alohida xizmat turlari almashtirilayotgan bo'lsa (Uslubiy nizomning 15 bandiga qarang), u holda yangi qo'shilgan xizmat tariflaridan foydalanib o'tgan oy uchun o'rtacha geometrik tarifni qayta hisoblash va joriy oy uchun o'rtacha geometrik tarifni hisoblash lozim bo'ladi. (- ilova).

25. Shartli tarifni hisoblash yoki uni almashtirish bo'yicha aniq bir usulni tanlash mavjud resurs bazasini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Zarur hollarda, tayanch tashkilotlar mutaxassislarini jalb qilgan holda amalga oshirilishi mumkin.

26. Agar, tayanch tashkilot tomonidan xizmat ko'rsatish to'liq to'xtatilganligi uning yopilganligi yoki tayanch korxonada narxlarni kuzatishni amalga oshirish imkonini bermaydigan fors-major holatlar to'g'risida boshqa axborotlar ma'lum bo'lsa, u holda, hudud/respublikada shunga o'xshash faoliyatni amalga oshiruvchi, biroq kuzatuvga tushmagan boshqa tashkilot mavjud yoki mavjud emasligini tekshirib ko'rish tavsiya etiladi. Mazkur holatda kuzatilayotgan tashkilotni shunga o'xshash tashkilot bilan almashtirish lozim bo'ladi. Agar hudud va yoki respublikada o'xshash tashkilotni tanlab olish imkonsiz bo'lsa, u holda ushbu tashkilot kuzatuvdan chiqariladi va mos ravishda o'tgan oylar uchun yig'ma indeks qatorlari qayta hisoblanadi.

Agar, tayanch tashkilot yopilishi yoki xizmat ko'rsatishning to'xtatilishi vaqtinchalik (2-3 oy) xususiyatga ega bo'lsa, u holda "shartli" tariflarni hisoblashning mavjud variantlaridan birini qo'llash lozim bo'ladi.

27. Kelib tushadigan axborotlarning to'g'riligini tekshirish uchun hisobot va so'rovnoma shakllarini qabul qilganda avtomatik tarzda amalga oshiriladigan birlamchi ma'lumotlarni tekshirish tizimi yo'lga qo'yilgan. O'tkazilgan tekshirishlar natijalari axborotlarni qabul qilishga mas'ul bo'lgan statistika organlari mutaxassislari tomonidan tahlil qilinadi.

28. Xatoliklar yoki ma'lumotlarda yetishmovchiliklar aniqlangan hollarda ma'lumotlarni qabul qilishga mas'ul mutaxassislar ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida tayanch tashkilotlar mutaxassislari bilan bog'lanadilar.

29. Aholi uchun yo'lovchi tashish transporti va aloqa xizmatlari tariflarini ro'yxatga olish tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomda belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

7-bob. Turli darajadagi agregatlarning qiymatini hisoblash uchun tortish tizimini shakllantirish

30. Tariflar indekslarini hisoblash uchun salmoq vaznlarni shakllantirishda tayanch davrdagi tashish va aloqaning bozor xizmatlari hajmi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Salmoq vaznlarini shakllantirish Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

31. Tayanch davr salmoqlari va indekslarini muvofiqlashtirish shartlariga rioya etgan holda tarif indekslarini shakllantirish maqsadida tuzatilgan yangilanish koeffitsiyentidan foydalanib, o'tgan yilgi tayanch davrning dekabr oyidagi narxlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'rtacha yillik hajmlari to'g'rilanadi.

32. Yangilanishlarni tuzatish koeffitsiyenti quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_{\text{актуал}} = \frac{STR_{\text{дек}, G-1}}{\sum_{n=1}^{12} (STR_{n, G-1}) / 12}$$

bunda:

$STR_{\text{дек}}$ – o'tgan oyga nisbatan dekabr oyining mos ravishda xizmatlar, xizmatlar guruhi va umumiy tashish va aloqa xizmatlari bo'yicha qisqa muddatli tarif indeksi¹;

STR_n – mos ravishda xizmatlar, xizmatlar guruhi bo'yicha o'tgan oyga nisbatan n oyidagi qisqa muddatli tarif indeksi;

n – oy raqami (yanvar uchun-1, fevral uchun-2 va h.k);

$G-1$ – indekslar hisoblanadigan va salmoq vaznlardan foydalaniladigan yilning o'tgan yilga nisbati.

33. To'g'rilangan aktualizatsiya koeffitsiyentlarini ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga ko'paytirish yo'li bilan barcha xizmat turlari bo'yicha xizmatlarning to'g'rilangan hajmi hisoblanib, bundan esa bevosita salmoq vaznlar tizimini hisoblashda foydalaniladi.

34. Aniq turdagi xizmat, guruhlar va kichik guruhlarining salmoq vaznlari quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$W_i = \frac{d_i}{\sum d_i}, \quad W_j = \frac{d_j}{\sum d_j}$$

bunda:

W_i – xizmatning salmoq vazni (i);

¹ Qisqa muddatli tarif indekslarini hisoblash uslubiyoti 8 bo'limida keltirilgan ("Formula tanlovi va tarif indekslarini hisoblash").

- W_j – j guruhning yoki kichik guruhlarining salmoq vazni;
- d_i – tayanch yil uchun ko‘rsatilgan i xizmatning to‘g‘rilagan hajmi;
- d_j – tayanch yil uchun ko‘rsatilgan i xizmatlar guruhi yoki kichik guruhining to‘g‘rilagan hajmi.

35. Qayta kiritilgan pozitsiyalar bo‘yicha to‘g‘rilangan aktualizatsiya koeffitsiyentlarini aniqlashda guruhlar pozitsiyasining mavjud tuzatish koeffitsiyentlaridan yoki guruhlar bo‘yicha pozitsiyasidan foydalaniladi.

36. Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblashda qo‘llaniladigan salmoq vaznlar tizimi har yili qayta ko‘rib chiqiladi.

8-bob. Formula tanlovi va tarif indekslarini hisoblash

37. Tanlangan elementlar qamrab olinish darajasiga qarab tashish va aloqa xizmatlari tariflari uchun individual va yig‘ma tarif indekslarini hisoblash amalga oshiriladi.

38. Dastlabki ma’lumotlar asosida qisqa muddatli individual tarif indekslari quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$STR_{t,i} = \frac{P_{t,i}}{P_{t-1,i}} \times 100\%,$$

bunda:

$STR_{t,i}$ – o‘tgan oyga ($t-1$) nisbatan t hisobot oyidagi i vakil-xizmatlarning individual tariflar indekslari;

$P_{t,i}$ – t hisobot oyidagi i vakil-xizmatlar tarifi, so‘mda;

$P_{t-1,i}$ – i vakil-xizmatlar tarifining o‘tgan t oyiga nisbati, so‘mda.

39. Jamlangan narx indekslarini hisoblashda tayanch davrning salmoq vaznlari tizimidan foydalanilgan holda modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi asosida amalga oshiriladi. Modifikatsiya shundan iboratki, har bir davrda tayanch salmoq vaznlar narx indeksining so‘nggi qiymatiga ko‘paytiriladi. Ushbu yondashuv hisob-kitoblar zanjirining uzluksizligini saqlab qoladi, bu esa xizmat ko‘rsatishning beqaror vaziyatlarida ularni almashtirish masalasini osonlashtiradi.

40. Bunda, narx indekslarini hisoblashda quyidagi formulalar qo‘llaniladi:

yanvar oyida qisqa muddatli indekslar o‘tgan oyga nisbatan va o‘tgan yilning dekabriga nisbatan uzoq muddatli indekslari ko‘rsatkichlari bir-biriga mos keladi:

$$STR_{j(yan.)} = LTR\ 2_{j(yan.)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(yan.)} \times W_{0i}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}} - \text{kichik sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{k(yan.)} = LTR\ 2_{k(yan.)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(yan.)} \times W_{0j}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}} - \text{sinflar bo'yicha,}$$

$$STR_{g(yan.)} = LTR\ 2_{g(yan.)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(yan.)} \times W_{0k}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}} - \text{guruhlar bo'yicha,}$$

$$STR_{r(yan.)} = LTR\ 2_{r(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{g(yan.)} \times W_{0g}}{\sum_{r=1}^n W_{0g}} - \text{bo'limlar bo'yicha,}$$

$$STR_{s(yan.)} = LTR\ 2_{s(yan.)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(yan.)} \times W_{0r}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}} - \text{seksiya bo'yicha,}$$

$STR_{(jan)}$ o'tgan oyga nisbatan yanvar oyidagi qisqa davrli narx indeksi;

$LTR\ 2_{(jan)}$ o'tgan yilning dekabriga nisbatan yanvar oyidagi uzoq davrli narx indeksi;

i tovar

j kichik sinf

k sinf

g guruh

r bo'lim

s seksiya

L tashish va saqlash faoliyati

$W_{0i}, W_{0j}, W_{0k},$ mos tovar (i) bo'yicha, kichik sinf (j), sinf (k), guruhning (g), seksiya (s), bo'lim (r), ishlab chiqarish faoliyati (L) salmoq vazni,

$W_{0g}, W_{0r},$

$W_{0s},$

W_{0L}

n tashish va saqlash faoliyatiga mos ravishda kichik sinf, sinf, guruh, bo'lim, seksiyaga kiritilgan pozitsiyalar soni.

fevral oyidan boshlab narxlar indeksini hisoblash yanvar oyidagi kabi ketma-ketlikda amalga oshiriladi, biroq, o'tgan yilning dekabriga nisbatan (LTR 2) uzoq muddatli jamlanma indekslar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$LTR2_{j(t)} = \frac{\sum_{i=1}^n STR_{i(t)} \times V_{i(t-1)}}{\sum_{i=1}^n W_{0i}}, \text{ bunda } V_{i(t-1)} = W_{0i} * \prod STR_{i(t-1)} - \text{kichik sinflar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{k(t)} = \frac{\sum_{j=1}^n STR_{j(t)} \times V_{j(t-1)}}{\sum_{j=1}^n W_{0j}}, \text{ bunda } V_{j(t-1)} = W_{0j} * \prod STR_{j(t-1)} - \text{sinflar bo'yicha};$$

$$LTR2_{g(t)} = \frac{\sum_{k=1}^n STR_{k(t)} \times V_{k(t-1)}}{\sum_{k=1}^n W_{0k}}, \text{ bunda } V_{k(t-1)} = W_{0k} * \prod STR_{k(t-1)} - \text{guruhlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{r(t)} = \frac{\sum_{g=1}^n STR_{g(t)} \times V_{g(t-1)}}{\sum_{g=1}^n W_{0g}}, \text{ bunda } V_{g(t-1)} = W_{0g} * \prod STR_{g(t-1)} - \text{bo'limlar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{s(t)} = \frac{\sum_{r=1}^n STR_{r(t)} \times V_{r(t-1)}}{\sum_{r=1}^n W_{0r}}, \text{ bunda } V_{r(t-1)} = W_{0r} * \prod STR_{r(t-1)} - \text{seksiyalar}$$

bo'yicha;

$$LTR2_{L(t)} = \frac{\sum_{s=1}^n STR_{s(t)} \times V_{s(t-1)}}{\sum_{s=1}^n W_{0s}}, \text{ bunda } V_{s(t-1)} = W_{0s} * \prod STR_{s(t-1)} - \text{tashish va saqlash}$$

faoliyati bo'yicha.

fevral oyidan boshlab qisqa muddatli indekslar o'tgan oyga nisbatan quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$STR_{j(t)} = \frac{LTR\ 2_{j(t)}}{LTR\ 2_{j(t-1)}} - \text{kichik sinflar bo'yicha},$$

$$STR_{k(t)} = \frac{LTR\ 2_{k(t)}}{LTR\ 2_{k(t-1)}} - \text{sinflar bo'yicha},$$

$$STR_{g(t)} = \frac{LTR\ 2_{g(t)}}{LTR\ 2_{g(t-1)}} - \text{guruhlar bo'yicha},$$

$$STR_{r(t)} = \frac{LTR\ 2_{r(t)}}{LTR\ 2_{r(t-1)}} - \text{bo'limlar bo'yicha},$$

$$STR_{s(t)} = \frac{LTR\ 2_{s(t)}}{LTR\ 2_{s(t-1)}} - \text{seksiyalar bo'yicha,}$$

41. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksidan tashqari quyidagi uzoq muddatli ko'rsatkichlar ham shakllantirildi:

o'tgan yilning tegishli oyiga nisbatan joriy yilning hisobot oyidagi narxlar indeksleri LTR 3: (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR\ 3_{(t)} = \frac{LTR\ 1_{t(y)}}{LTR\ 1_{t(y-1)}},$$

bunda

$LTR\ 3_{(t)}$ hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun o'tgan yilning mos oyiga (t) nisbatan uzoq muddatli narxlar indeksi (y-1);

$LTR\ 1_{t(y)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan hisobot yilining (y) joriy oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

$LTR\ 1_{t(y-1)}$ yagona tayanch davr uchun hisoblangan o'tgan yilning (y-1) mos oyi (t) uchun uzoq muddatli indeksi;

davrning narxlar indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan LTR 4 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR\ 4_{(t)} = \frac{\sum_{n=1}^t LTR\ 1_{n(y)}}{\sum_{n=1}^t LTR\ 1_{n(y-1)}},$$

bunda

$LTR\ 4_{(t)}$ o'tgan yilning mos davriga (y-1) nisbatan hisobot yilining (y) yanvar oyidan joriy oyga (t) qadar uzoq muddatli narxlar indeksi;

n oylarning tartib raqami (yanvar uchun – 1, fevral uchun – 2 va h.k.).

42. Bundan tashqari, narx indeksleri har chorakda hisobot yilining joriy choragi uchun o'tgan chorakka va o'tgan yilning mos choragiga nisbatan ham hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi formulalar qo'llaniladi:

hisobot yili joriy choragining narxlar indeksi o'tgan chorakka nisbatan LTR 5 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR\ 5_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR\ 1_{m(q)}}{\sum_{m=1}^3 LTR\ 1_{m(q-1)}}$$

bunda

$LTR 5_{(q)}$ joriy chorak narx indeksi (q) o'tgan chorakka nisbatan (q-1);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3).

hisobot yili joriy choragining o'tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar indeksi $LTR 6$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 6_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)}}{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y-1)}}$$

bunda

$LTR 6_{(q)}$ o'tgan yilning mos choragiga nisbatan (y-1) hisobot yili (y) joriy chorak narx indeksi (q);

m chorak oylarining tartib raqami (birinchi oy uchun – 1, ikkinchi oy uchun – 2, uchinchi oy uchun – 3)..

43. Bundan tashqari, statistik maqsadlarda quyidagi qo'shimcha diskret narxlar indeksi shakllantiriladi:

hisobot yili joriy choragining bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi $LTR 7$ (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR 7_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR 1_{m(y)} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR 1_{n(z)} / 12}$$

bunda

$LTR 7_{(q)}$ bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

$LTR 1_{(y)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan hisobot yilining uzoq muddatli indeksi (y);

$LTR 1_{(z)}$ yagona bazaviy davr uchun hisoblangan bazaviy yilining uzoq muddatli indeksi (z);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chi chorakning birinchi oyi, 2- chi ikkinchi oyi va 3- chi uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy choragining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi *LTR* 8 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR8_{(q)} = \frac{\sum_{m=1}^3 LTR1_{m(y)} / 3}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)} / 12}$$

bunda

$LTR 8_{(q)}$ joriy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy choragi narx indeksi (q);

m chorakdagi oyning tartib raqami (1- chi chorakning birinchi oyi, 2- chi ikkinchi oyi va 3- chi uchinchi oyi uchun).

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining tayanch (bazaviy) yilning o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi *LTR* 9 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR9_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(z)} / 12}$$

bunda

$LTR9_{(t)}$ bazaviy yilning o‘rtacha yillik narxlariga (z) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n bazaviy yil oyining tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

hisobot yili joriy oyining hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga nisbatan narx indeksi *LTR* 10 (formula barcha darajadagi umumlashtiruvlar uchun mos keladi):

$$LTR10_{(t)} = \frac{LTR1_{t(y)}}{\sum_{n=1}^{12} LTR1_{n(y)} / 12}$$

bu yerda:

$LTR10_{(t)}$ hisobot yilining o‘rtacha yillik narxlariga (y) nisbatan hisobot yili (y) joriy oydagi narx indeksi (t);

n oyning tartib raqami (1-yanvar, 2-fevral..., 12-dekabr)

44. Hisobot yilining joriy choragi va joriy oyining hisobot yilining oʻrtacha yillik narxlariga narxlar indeksi (LTR8 va LTR10) hisobot yili oxirida dekabr oyi uchun narxlar indeksi hisob-kitoblari tugaganidan soʻng shakllantiriladi. Indeksni shakllantirish har bir chorak (LTR8) va oy uchun (LTR10) retrospektiv holda amalga oshiriladi.

45. Narxlar indeksining oʻrtacha oylik koʻrsatkichlari oʻrtacha geometrik kattalikni hisoblash formulasidan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{STR_1 * STR_2 * * STR_n}$$

bu yerda:

- $\overline{I_p}$ – birinchi oydan n-chi oygacha davr uchun oʻrtacha oylik narx indeksi;
- STR – oʻtgan oyga nisbatan har bir oy uchun qisqa muddatli narx indeksi;
- p – oylar soni.

46. Yil boshidan boʻlgan davr uchun oʻrtacha oylik narx indeksini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$\overline{I_p} = \sqrt[n]{LTR_2^n},$$

bu yerda:

- $\overline{I_p}$ – birinchi oydan n-chi oygacha davr uchun oʻrtacha oylik narx indeksi;
- LTR_2 – oʻtgan yilning dekabr oyiga nisbatan n-chi uchun narx indeksi;
- n – oyning tartib raqami.

9-bob. Maʼlumotlarni tahlil qilish

47. Maʼlumotlarni tahlil qilish bosqichida tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksi toʻgʻrisidagi statistik materiallarni ishlab chiqish, ularni batafsil tekshirish va rasmiy statistika maʼlumoti sifatida tarqatish uchun tayyorlash amalga oshiriladi.

48. Maʼlumotlarni tahlil qilish bosqichida tayyorlangan chiquvchi jadvallar natijalarini, shuningdek, maʼlumotlar bazasidan yoki tayyor hujjatlar bazasidan olingan zarur axborotlarni koʻrib chiqish, shakllantirilgan maʼlumotlar asosida diagrammalar, grafikalar va tahliliy jadvallarni tuzish boʻyicha ishlar amalga oshiriladi.

49. Tarif indeksi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari sifatini tahlil qilishda, statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi va aniqligi (asoslanganligi, xatolarning yo'qligi), yaxlitligi (qamrovning to'liqligi, statistika metodologiyasiga rioya etilganligi), bir-biriga qarama-qarshi emasligi, qiyosiyli (hudud, qamrab olingan ob'ektlar doirasi, o'lchov birligi va boshqalar bo'yicha), bir xilda tuzilganligi (ma'lumotlarni chiqarib tashlash, ularda keskin o'zgarishlar, tushirib qoldirish holatlarining mavjud yoki mavjud emasligi) jihatlari ko'rib chiqiladi.

50. Ma'lumotlarni tahlil qilish doirasida amalga oshiriladigan tekirish ishlari birlamchi ma'lumot qamrovi ko'rsatkichi va savolnoma bo'yicha taqdim etilgan javoblar koeffitsientining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish, statistika ma'lumotlarini oldingi davrlar va joriy trendlar bilan solishtirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Zarur hollarda, tahlil qilish doirasida narxlar indeksi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilinishini ta'minlashga qaratilgan turli tushuntirishlar tayyorlanishi mumkin.

51. Ushbu jarayonda, shuningdek, barcha chiquvchi jadvallar, fayllar va boshqa statistik materiallar tayanch korxonalar va ular bo'yicha individual ma'lumotlarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini bermayotganligini tekshirishni nazarda tutuvchi birlamchi ma'lumotlarni identifikatsiya qilishni oldini olish bo'yicha choralar qo'llash amalga oshiriladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

52. Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksidan transport va aloqa sohasidagi inflyatsion jarayonlarni baholashda, indeks-deflyatorlarni aniqlashda, turli xildagi iqtisodiy hisob-kitoblarda va makro darajadagi prognozlashtirish ishlarida foydalanish mumkin.

Nashrlarda va rasmiy hisobotlarda tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksi ma'lumotlari verguldan so'ng bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

53. Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.

Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati

1. "Ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi: amaliyot va nazariya" (YeIQ, BMT, XVJ, XMT, IXRT, Yevrostat, Jahon banki, 2004- yil).
2. "Milliy hisoblar tizimida hajm va narx ko'rsatkichlari bo'yicha qo'llanma" (Yevrostat 2001- yil).
3. O'zbekiston Respublikasi davlat standarti O'zDT 005: 2011 // Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat tasniflagichi (2-tahrir).
4. "Raqamli rivojlantirish o'lchamlari. 2020- yilda AKT narxlari tendensiyasi" // Xalqaro elektroaloqa birlashmasi // 2020- yil.

“Tashish va aloqa xizmatlari
tariflari indeksini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizom”ga
ilova

Tashish va aloqa tariflari indekslarini hisoblash va e'lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
I bosqich	Transport, saqlash va aloqa sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar katalogi va vaznlar tuzilmasini shakllantirish	1. Transport, saqlash va aloqa sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmlari to'g'risidagi statistika ma'lumotlari asosida narx kuzatuvlari uchun korxonalar katalogini shakllantirish; 2. Xizmatlar sohasi statistikasi ma'lumotlari asosida korxonalar va mahsulotlar bo'yicha vazn ulushlari tuzilmasini shakllantirish; 3. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar katalogi va vazn ulushlari bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish.	yilda bir marotaba, oktabr oyining 20- kuni	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, Narxlar statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Elektron kuzatuvlarni qabul qilish	Har oyda e-Stat tizimi orqali 12 narx kuzatuv shakli asosida respondentlardan kuzatuv ma'lumotlarini qabul qilib olinishini ta'minlash.	12 narx, kuzatuv oyining 25- sanasi	Hududiy statistika boshqarmalari, Narxlar statistikasi boshqarmasi
III bosqich	Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlash	Korxonalardan yig'ib olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlash va yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda	Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari
IV bosqich	Yakuniy ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish	1. Ko'rsatkich bo'yicha statistik byulleten shakllantirish; 2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e'lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish; 3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indeksi bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni yetkazish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, Reja-jadvalga asosan	Narxlar statistikasi boshqarmasi